



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2024- yil
yanvar-iyun



SIRDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

XVI. DEMOGRAFIK HOLAT

Sirdaryo viloyatida 2024-yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **922,1** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **8,0** ming kishiga yoki **0,9 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **397,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,1 %**), qishloq aholisi soni **525,0** ming kishi (**56,9 %**) ni tashkil etdi. Viloyat ma’muriy-hududiy jihatdan 3 ta viloyat bo‘ysunuvidagi shahar va 11 ta tumanga bo‘lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 215,6 kishiga to‘g‘ri keladi. Ma’muriy markazi – Guliston shahri bo‘lib, aholisi 100,7 ming kishi.

Doimiy aholi soni

922,1

*ming
kishi*

Tabiiy o‘sish

+8,3

*ming
kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar joylarda



Qishloq joylarda



43,1 %

56,9 %

Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil 1-iyul holatiga



10,4 *ming kishi*
Tug 'ilganlar soni



2,1 *ming kishi*
O 'lganlar soni



2,4 *ming kishi*
Nikohlar soni



0,8 *ming kishi*
Ajralishlar soni



3,6 *ming kishi*
Ko 'chib kelganlar



3,9 *ming kishi*
Ko 'chib ketganlar soni

Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024- yil 1-iyul holatiga



Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar - **31,9 %**




Mehnatga layoqatli yoshdagilar - **58,3 %**




Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar - **9,8 %**

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyatimizda doimiy aholi sonining 31,9 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,3 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 9,8 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi 2024- yil 1- iyul holatiga



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi 2024- yil yanvar-iyun holatiga



2024-yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **51,0** % farzandsiz, **25,0** % bitta farzand bilan, **24,0** % ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1-iyul holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	<i>O’sish sur’ati, % da</i>
Sirdaryo viloyati	904,8	922,1	101,9
<i>shahar:</i>			
Guliston sh	97,5	100,7	103,3
Shirin sh	19,4	19,4	100,0
Yangiyer sh	47,3	48,5	102,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin t	55,4	56,2	101,4
Boyovut t	137,5	140,1	101,9
Sayxunobod t	82,3	83,4	101,3
Guliston t	78,7	80,3	102,0
Sardoba t	69,8	70,8	101,4
Mirzaobod t	79,7	81,2	101,9
Sirdaryo t	135,8	138,2	101,8
Xovos t	101,4	103,3	101,9

Sirdaryo viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi


2024-yil 1-iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Sirdaryo viloyatida 2024- yil 1-iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **215,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **8,1** kishiga ortgan (2023- yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **207,5** kishi to'g'ri kelgan).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Guliston shahrida **2781,8** kishi, Yangiyer shahrida **1616,7** kishi, Shirin shahrida **1447,8** kishi, Boyovut tumanida **268,1** kishi, Sirdaryo tumanida **249,1** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Mirzaobod tumanida **127,6** kishi, Oqoltin tumanida **102,0** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-iyun holatiga




2024- yil yanvar-iyun oylarida **10,4** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **22,8** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida **24,6** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR




Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-iyun holatiga



2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2,1 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan ko‘rsatkich 0,2 promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 4,7 promille bo‘lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun holatiga, kishi




2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining **59,1 %** – Qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **4,6 %** – Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **6,3 %** – Nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **6,7 %** – Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **2,7 %** – Yuqumli va parazit kasalliklardan **8,5 %** – O'simtalardan vafot etganlar va **12,1 %** – Boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, birlik




2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2,4 mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 5,3 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,1 promille kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 5,4 promille bo‘lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR




Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-iyun, birlik




2024- yil yanvar-iyun oylarida **0,8** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,7** promille ni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,1** promille kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida **1,8** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR




Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun holatiga




2024- yilning yanvar-iyun oylarida **3,6** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **7,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **1,1** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **6,8** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KETGANLAR



Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-iyun holatiga



2024- yilning yanvar-iyun oylarida **3,9** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **8,6** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **8,3** promille bo‘lgan).

Aholining migratsiya ko‘rsatkichlari
(yanvar-iyun, kishi)

	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldosi</i>	
	<i>2023- yil.</i>	<i>2024- yil.</i>	<i>2023- yil.</i>	<i>2024- yil.</i>	<i>2023- yil.</i>	<i>2024- yil.</i>
Sirdaryo viloyati	3059	3604	3723	3920	-664	-316
shaharlar						
Guliston	763	877	669	652	94	225
Shirin	134	91	125	178	9	-87
Yangiyer	368	423	272	288	96	135
tumanlar:						
Oqoltin	144	236	192	276	-48	-40
Boyovut	236	377	522	478	-286	-101
Sayxunobod	35	19	233	231	-198	-212
Guliston	404	357	309	388	95	-31
Sardoba	142	178	274	305	-132	-127
Mirzaobod	284	394	304	305	-20	89
Sirdaryo	270	338	387	392	-117	-54
Xovos	279	314	436	427	-157	-113

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıladı.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.



Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migrations o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 67 236-70-00